XALQ DEPUTATLARI QUMQO‘RG‘ON TUMANI KENGASHINING QARORI

Qumqo‘rg‘on tumani,O‘zbekiston shoh ko‘chasi 1-uy.190900,tel.: (+99876)46-52-511

2022 - yil 5 - sentabr VI-52-97-8-114-K/22 Qumqo‘rg‘on tuman hokimligi

Tumandagi ayrim ko‘chalarni qayta nomlash va nomini tasdiqlash to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari haqida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida hamda “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni 6-moddasiga asosan xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha Geografik obyektlarga nom berish to‘g‘risidagi takliflarni davlat ekspertizasidan o‘tkazish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi ekspert komissiyasining 2022-yil 6-iyuldagi 08-05737-son yig‘ilish bayoni ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tumanda nomlari o‘zgarayotgan ko‘chalar ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Tuman statistika bo‘limi (Sh.Allayarov), tuman qurilish bo‘limi (E.Karamatov), Davlat kadastrlar palatasi Qumqo‘rg‘on tuman filiali (A.Tojiyev) tuman hokimligi bilan birgalikda nomlari o‘zgartirilgan hamda tasdiqlangan ko‘chalarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va elektron bazani shakllantirish, ish yuritish hujjatlariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Tuman ichki ishlar bo‘limi (N.Narzullayev) nomlari o‘zgargan hamda tasdiqlanayotgan mahallalar va ko‘chalarda yashovchi aholining fuqarolik pasportlariga, mazkur hudud aks ettirilgan belgilariga tegishli o‘zgartirishlar kiritish ishlarini amalga oshirsin.

5. Tuman qurilish bo‘limi (E.Karamatov) hududlarda nomlari o‘zgartirilgan geografik obyektlarga yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

6. Mazkur qaror “Qumqo‘rg‘on sadosi” gazetasida rasman e’lon qilinsin va tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin, ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan boshlab kuchga kiradi.

7. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Ta’lim, sog‘liqni saqlash, madaniyat, sport va ijtimoiy himoya masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (Z.Allayarova), xalq deputatlari tuman Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha doimiy komissiyasi (M.Namozov) zimmalariga yuklatilsin.

Kengash raisi **A.Normamatov**

Xalq deputatlari Qumqo‘rg‘on tuman
Kengashining
2022 yil 5 sentabrdagi
VI-52-97-8-114-K/22-son qaroriga
1-ilova

Qumqo‘rg‘on tumanidagi ayrim geografik obyektlarni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflar

T/r	Geografik obektning turi	Joylashgan o‘rni	Geografik obektning amaldagi nomi	Viloyat komissiyasi tomonidan berilgan taklif	Ekspertiza xulosasi
1	Ko‘cha	Yangi shahar MFY	Shaffof	Oydin	**Oydin**
2	Shox ko‘cha	Yangi shahar MFY	Saodatmant	O‘zbekiston	**O‘zbekiston**
3	Ko‘cha	Ulug‘bek MFY	Dilnavo	Osoishtalik	**Osoishtalik**
4	Ko‘cha	Ulug‘bek MFY	Zarbuloq	Xalq yo‘li	**Zarbuloq**
5	Ko‘cha	Ulug‘bek MFY	Beshyog‘och	Yangi diyor	**Yangi diyor**
6	Ko‘cha	Neftchilar MFY	Ma’rifat	3- kichik daha	**Ma’rifat**